

ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARDAGI DASTURLARNING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI

Muxtaramxon Mutalibova

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilhomjon Aldashev

*Farg'ona davlat universiteti axborot
texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardagi dasturlarning inson hayotiga qanchalik kerakligi va ularning inson uchun qulaylik, yengillik yaratayotgani haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiyalar, pandemiya, dasturlar, zoom, konferensaloqa, masofaviy ta'lim, power point, slayd, prezidentatsiya, animatsiya, projekt, videorolik, hemis, kundalik.com.*

THE ROLE OF PRIGRAMS IN MODERN TECHNOLOGIES IN OUR LIVES

Abstract: *This article talks about how much modern technology programs are necessary for human life and convenience for people.*

Keywords: *modern technologies, pandemic, programs, zoom, conference call, distance education, power point, slide, presentation, animation, project, video, hemis, kundalik.com.*

Bilamizki 21 asr Axborot texnologiyalari asri deb nomlangan, shundan kelib xulosa qilish mumkinki, hozirda haqiqatdan ham insonlar ish faoliyati, ijtimoiy hayot to'laqonlik ravishda texnologiyalar va ulardagi dasturlarga bog'liqdir. Zamonaviy texnologiyalar hozirgi paytda insonlar uchun ancha yengilliklar berib, ular uchun muammo bo'lgan vaziyatlarni yechimini topishda yordam bermoqda. Aslida G'arb davlatlari, xususan, Yevropa hududida zamonaviy texnologiyalar ancha oldin rivojlangan va insonlar hayotiga kirib borgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo, xususan, bizning mamlakatimizda so'nggi 4yil ichida ancha ommalashib, insonlar hayotiga, ish faoliyatiga kirib keldi. Bunga asosan pandemiya sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki pandemiya davrida ta'lim olish jarayonlari, ish faoliyatlar onlayn tarzda ya'ni texnologiyalarga bog'liq holda bo'ldi. Bundan tashqari pandemiy davida insonlar texnologiyalar va ulardagi dasturlarga qiziqib, o'rgana boshladi.

Hozirgi kunda esa texnologiyalar va ulardagi dasturlar insonlar faoliyati, ijtimoiy hayotning ajralmas bir bo'lagi bo'lib qoldi. Masalan: Zoom, PowerPoint, Hemis, Kundalik.com, Exsel, Word kabi dasturlar. Bu dasturlar orqali insonlar o'z

maqsadlariga yuqori qulaylik bilan erishmoqda. Quyida ushbu dasturlarning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Zoom. Ushbu dasturning qulayliklari juda ham ko'p. Bu dastur orqali insonlar bemalol onlayn ya'ni masofaviy ta'lim olishi yoki ta'lim berish va o'z ish faoliyatini onlayn tarzda amalga oshirish, videokonferensiyalar o'tkazish va ularda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa tom ma'noda insonlar uchun juda ham katta yengillik bo'ladi. Negaki, insonlar zoom dasturi sababli vaqt va pul tarafлама moddiyatini tejashi mumkin. Ushbu dastur 2011-yil Erik Yuan tomonidan yaratilgan. Bu dastur asosan videokonferensaloqa tizimi uchun xizmat qiladi. 2013-yil may oyiga kelib Zoom dasturi foydalanuvchilari bir millionga yetadi. Foydalanuvchilarning eng faol o'sishi pandemiya davrida, videokonferensaloqa har qachongidan ham ko'roq talabga ega bo'lgan paytga to'g'ri keldi. Bu davrda Erik Yuan 3oy ichida 4milliard dollar ishlab oldi. Hozirda ham ushbu dasturdan keng qamrovda foydalanilmoqda.

PowerPoint. PowerPoint inglizchadan tarjima qilinganda "ishonarli hisobot" degan ma'noni anglatadi. Dasturdagi asosiy tushuncha slayd va prezentatsiya tushunchalaridir. Ushbu dastur hozirgi kunda hayotimizda juda ko'p foydalanilayotgan dasturlarda biri hisoblanadi. Bu dastur asosan taqdimotlar yaratish va ularni tomosha qilishga mo'ljallangan dastur. Power Point dasturida yaratilgan taqdimotlar proyekt yordamida katta ekranlarda yoki katta o'lchamdagi televizion ekranlarda ko'rishga mo'ljallangan bo'ladi.

Har qanday mutaxassis o'zining ish faoliyati davomida ish rejalari va taklif etilayotgan mahsulotlar haqida so'zlab berish uchun ma'ruza qilishga to'g'ri keladi. Bunday vaqtlarda ma'ruzani tez, yaxshi, sifatli va chiroyli qilib tayyorlanishi zarur bo'ladi. Shu bilan birga Power Point dasturi orqali tayyorlangan dars mavzulariga oid slaydlar o'qituvchini mavzuni yaxshi tushuntira olishi uni kengroq yoritish olishi imkoniyatini beradi va o'quvchilarning dars mavzusiga qiziqishi, uni yaxshi eslab qolishi darajasini oshirish mumkin, chunki ko'pchilik insonlarda ko'rish orqali eslab qolish qobiliyati kuchli rivojlangan bo'ladi.

Power Pointda matn, rasm, ovoz, chizma, grafiklar, animatsiya, effektlar va videoroliklardan foydalanib slaydlar tayyorlash mumkin.

Hemis. Hozirda yurtimizda deyarli hamma narsa raqamlashtirishga tomon ketmoqda bu orqali juda ham ko'p qulaylik, moddiy mablag'lar tomonidan tejamkorlikka erishish mumkin. Mavjud dasturlarimizdan biri Hemisga to'xtaladigan bo'lsak ushbu dastur barcha talabalar va ustozlar uchun dastur barcha talabalar va ustozlar uchun qulay dastur hisoblanadi. Hozirgi kunda Hemis dasturi yurtimizdagi barcha OTM larda mavjud bo'lib, ular uchun muhim dastur hisoblanadi. Hemis orqali talabalar muntazam ravishda o'z baholaridan muntazam ravishda boxabar bo'lishi, fanlardan o'zlashtirish darajasi, hafta kunlarida qaysi fanlarning o'tilishi, fanlardan qaysi ustozlarning dars berishi, darslarning soati va hattoki qaysi auditoriyada o'tilishini ham bilib olishi mumkin. Bu esa dasturning insonlar uchun

qanchalik qulay ekanligidan dalolat beradi. Bu dastur orqali talabaga tegishli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni bilish ham mumkin.

Hemis axorot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy ish faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi

Kundalik.com. Hozirda yana bir dastur borki uni Hemis dasturining kichik ko'rinishi desak ham bo'ladi. Uning imkoniyatlari Hemis dasturidan biroz ozroq bo'lsa-da, lekin hozirda yurtimizdagi har bir maktab jarayonida ishlatiladi, ya'ni Kundalik.com dasturidir. Kundalik.com-raqamli ta'lim platformasi bo'lib, o'qituvchilar uchun onlayn rejimda darslarni rejalashtirish, dars ishlanmalarini tuzish, o'quvchilarning davomati va yutuqlarini jurnal hamda kundalikning elektron shakllarda yuritish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchilarning vaqtini tejashi mumkin.

Kundalik.com ota-onalar va maktab hamkorligini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, Kundalik.com tizimi ota-onalar uchun qator qulayliklar yaratdi. Jumladan, ota-onalar farzandlarini darsga qatnashayotgani, darsni qay darajada o'zlashtirib borayotgani haqida ma'lumotlar beradi.

Bu dasturda maktab o'quvchilari o'zlari ham fanlardan o'zlashtirish darajalarini muntazam ravishda kuzatishi mumkin hamda o'quvchilar ertangi kungi uy vazifalari xususida tezkor ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, Kundalik.com tizimi o'qituvchi, ota-onalar shu bilan bir qatorda o'quvchilarning ham mustahkam hamkorligini ta'minlashda ishonchli ko'priki bo'lib xizmat qilmoqda.

Dasturlar haqida fikrlarni xulosalar ekanimiz, demak zamonaviy texnologiya arimizdagi dasturlarning barchasi insonlar faoliyatiga yengillik berish vazifasini o'tar ekan. Har bir sohada dasturlarning o'ziga xos munosib o'rni bo'lib, inson ularning yordamiga tayanib o'z maqsadlarini qulay usulda amalga oshirmoqda. Shuni ham aytish kerakki, arimizning nomlanishi ham ijtimoiy hayotimizdagi holatdan kelib chiqqan holda nomlangan. Shuni ham aytish kerakki hozirgi kunda yaratilayotgan va foydalanilayotgan barcha dasturlar yilda yilga rivojlanib, yangilanib boradi va bu juda katta imkoniyat, vaqt tejash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Aldashev, S. Aldasheva "Dars samaradorligini oshirishda axborot texnologilarining tutgan o'rni"- ... and practical conference" the time of..., 2022 Related articles
2. Modern information technologies in education is a new opportunity I. Aldashev-Economy and society, 2020 cited by 8 Related articles
3. Temirov. A, Sohobiddinov A. "Mamlakatimiz ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya va innoatsiyon texnologiyalardan foydalangan holda bilim olish"
4. Biznesrivoj. uz 2021
5. "Plans and Pricing-Zoom" 2020-yil 24-iyun

6. Sport. uz 2019-yil 13-avgust

7. Yoshlarovozi. uz 2023